

# **Nukus, Urganch va Buxoroga aviaqatnovlar**

**2020 17 Iyun**

Hurmatli yo'lovchilar! Uzbekistan Airways aviakompaniyasi joriy haftadan boshlab respublika ichidagi yo'nalishlar bo'yicha quyidagi qatnovlarni amalga oshira boshlashini e'lon qiladi:

Toshkent-Nukus-Toshkent payshanba va yakshanba kunlari — Toshkentdan ketish 15:30 da, Nukusga kelish 17:10 da. Nukusdan ketish 19:40 da, Toshkentga kelish 21:00 da.

Toshkent-Urganch-Toshkent chorshanba va shanba kunlari — Toshkentdan ketish 15:30 da, Urganchga kelish 17:00 da. Urganchdan ketish 19:40 da, Toshkentga kelish 20:50 da.

Toshkent-Buxoro-Toshkent dushanba va juma kunlari — Toshkentdan ketish 10:30 da, Buxoroga kelish 11:40 da. Buxorodan ketish 14:10 da, Toshkentga kelish 15:10 da.

Eslatib o'tamiz, havo kemasida va aeroport binosida karantin qoidalariga rioya qilish, shu jumladan tibbiy niqob va qo'lqopda bo'lisingiz kerak.

Biz yana siz bilan bo'lisdan va sizni havo kemasida kutib olishdan xursandmiz! Uzbekistan Airways bilan sayohat qilayotganingiz uchun rahmat.